

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



KO'ZI OJIZ SHAXSLARNI ISH BILAN TA'MINLASHNI QONUNCHILIK VOSITASIDA TARTIBGA SOLISHDAGI XORIJUY TAJRIBA

Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li

TDIU, "Fundamental iqtisodiyot" kafedrasi tayanch doktaranti



Annotatsiya: Iqtisodiyotning liberallashuvi natijasida bozor o'z-o'zini tartibga solishini hisobga olgan aksariyat mamlakatlar ijtimoiy sohani tartibga solish hamda uni har tomonloma samarali taraqqiy etishida davomiy yordamni ayamaydi. Jumladan, ushbu maqolada ijtimoiy qatlarning faol vakili bo'lmish ko'zi ojiz shaxslar mehnat faoliyatidagi mayjud to'siqlarni bartaraf etish va uning inklyuzivligini ta'minlashda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahliliy o'r ganib chiqildi. Ko'zi ojizlar hayotini o'r ganish jarayonida ularning jamiyatga intigratsiyalashuvi tarixiy bosqichlarga ajratildi. Ushbu tadqiqot natijasi sifatida rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyotida olib borilayotgan tajriba asosida davlatimizda amalga oshirilishi muhim bo'lga taklif va tavsiyalar taqdim etildi.

Kalit so'zlar: ishsizlik, ko'zi ojiz shaxslar, qonunchilik, xorij tajribasi, kvota, ijtimoiy siyosat, moliyaviy imtiyozlar, inklyuzivlik, bandlik.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЗАНЯТОСТИ НЕЗРЯЧИХ

Аннотация: Принимая во внимание саморегулирование рынка в результате либерализации экономики, большинство стран не жалеют постоянной помощи в регулировании социальной сферы и ее эффективного развития во всех отношениях. В частности, в данной статье аналитически проанализирован опыт зарубежных стран по устранению существующих препятствий в работе незрячих, являющихся активными представителями социального слоя, и обеспечению его инклюзивности. В процессе изучения жизни слепых людей их интеграция в общество была разделена на исторические этапы. В результате данного исследования были представлены предложения и рекомендации, которые важно реализовать в нашей стране на основе опыта законодательной практики развитых стран.

Ключевые слова: безработица, слепые, законодательство, зарубежный опыт, квота, социальная политика, материальные льготы, инклюзия, занятость.

FOREIGN EXPERIENCE OF LEGISLATIVE REGULATION OF EMPLOYMENT OF THE BLIND

Abstract: Taking into account the self-regulation of the market as a result of the liberalization of the economy, most countries do not spare continued assistance in the regulation of the social sphere and its effective development in all respects. In particular, in this article, the experience of foreign countries in eliminating existing obstacles in the work of blind people, who are active representatives of the social stratum, and ensuring its inclusiveness, was analyzed analytically. In the process of studying the life of blind people, their integration into society was divided into historical stages. As a result of this study, suggestions and recommendations were presented, which are important to be implemented in our country based on the experience of the legislative practice of developed countries.

Key words: unemployment, blind people, legislation, foreign experience, quota, social policy, financial benefits, inclusion, employment.

KIRISH

Dunyo tarixiga nazar tashlasak insoniyat yaratilgan davrdan boshlab turli tuzumlarni bosqichma-bosqich boshidan o'tkazdi. Jumladan, inson o'z ehtiyojini qondirishga zaruriyat sezishi natijasida dastlabki faoliyatini uy xo'jaligadan boshlab, iqtisodiy munosabatlarning global tus olishi o'z navbatida jahon xo'jaligiga asos soldi. Dunyo aholisi son jihatdan asrdan-asrgacha tobora ko'payib borish tendensiyasiga egadir. Sog'lom kishilar qatorida ko'rish qobiliyati cheklangan kishilar ham dunyoga kelmoqda hamda sog'lom insonlar baxtsiz hodisalar natijasi o'laroq ko'rish qibiliyatlaridan mahrum bo'lib qolishadi. Insonning ko'rish qibiliyatidan mahrum bo'lishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda samaradorlikka erishish uchun yengib bo'limas to'siqlarga sabab bo'ladi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun har bir jamiyatning urf-odatlari bilan bir qatorda qonunchilik yordamga keladi.



Ushbu tadqiqot ishining dolzarbli shundan iboratki, rivojlanish siklida bo'lgan mamlakatimiz iqtisodiyotida taraqqiy etgan xorijiy davlatlarning ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligi va ishsizlik muammo-lari yechimi uchun davlatning kuchli ijtimoiy siyosat orqani qonunlar darajasida ularning huquqlarini himoya qilish amaliyotini o'rganish, tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar inklyuziv o'sish-ga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan maksimal sur'a tlarda foydalanishga etibor qaratishmoqda. Bunday islohotlar sirasiga ijtimoiy institutlar, ko'zi ojizlar huquqlarini himoya qiluvchi uyushmalar, nodavlat jamaot bir-lashmalari hamda turli maqsadli jamg'armalarni tashkil etilganligini kiritish mumkin.

Dunyo davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadi. Ko'zi ojiz shaxslarni shunchaki bandligini ta'minlashgagina emas shu bilan birgalikda ularni shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda mehnatda shaxsiy rivojlanishlari uchun teng imkoniyat beruvchi raqobat muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson kapitalini rivojlantirishga sarflangan har bir investitsiya o'z samarasini albatta berishidan umidvor davlatlar inklyuziv ish o'rinalarini yaratishni rag'batlantirish uchun subsidayalar, imtiyoz va prefrensiyalarni ajratishda faoliyot ko'rsatishmoqda. Ushbu islohotlar natijasi o'laroq ko'zi ojiz insonlar o'z shaxsiy faoliyatlarida rivojlanishga erishib, moliyaviy holatlarini barqarorlashtirishga muvaffaq bo'lishmoqda.

Ko'zi ojiz shaxslar bandligini ta'minlash, qulay mehnat sharoitlarini yaratish, hududlararo infratuzilmani muvofiqlashtirish kabi tashkiliy masalalar mavjud muammoning tashkiliy, iqtisodiy jihat bo'lsa, masalaning psixologik tomoni ularning shaxsiy qibiliyatlar ega ekanliklari to'g'risidagi hayot motevatsiyalarni uyg'otish ya'na bir muhim jihatidir. Ko'zi ojizlar Sog'lom insonlar kabi mazmunli hayot kechirishlari, moliyaviy barqaror bo'lishlari, axborotni oson o'zlashtirish va uni qayta ishslash hamda sog'lom raqobat muhitida o'z imkoniyotlarini oshkor etishi uchun doimo ushbu savollar dolzarbigicha qoladi.

- Nima uchun ko'zi ojizlar majburiy zaxiralangan ish o'rniغا muhtojlar?
- Qaysi qonun asosida ko'zi ojiz shaxslarni uzlusiz va lavozim darajasida ko'tarila olishni kafolatlaydigan tizim yaratish mumkin?
- Qanday qilib kvotalangan ish o'rinalarini amalda samarali ishlayotganligini nazorot qilish mexanizmini yaratish mumkin?
- Nima uchun ko'zi ojiz shaxslar daromadi sog'lom insonlar o'rtacha daromadidan yuqoriroq bo'lishi kerak va qaysi moliyaviy manba asosida?
- Ko'zi ojiz insonlarning munosib ish bilan bandiligi iqtisodiyotga qanday manfaatlar olib keladi?
- Davlatning ijtimoiy siyosatini qonunchilik bilan mustahkamlash doirasida, qanday uslubda qonunlar ish beruvchilarni ko'zi ojiz insonlarni ishga olishga majburlash emas balki ularga motivatsiya berishga xizmat qilishi kerak?

Yuqorida va boshqa savollarni javobini toppish uchun rivojlanayotgan mamlakatlar amalda o'z yechimini topayotgan xorij tajribasiga muroajat qilishi lozimdir.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'zi ojiz odamlar hayotida tadbirkorlik ahamiyati Malayziyalik olimlar nazdida quydagicha: "Imkoniyati cheklangan odamlarni rag'batlantirish orqali bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi tadbirkorlik bilan shug'ullanish bandlik imkoniyatlari rag'batlantirish va ishsizlik va bu odamlar qashshoqligini yengadi"¹.

Jahon mamlakatlari tajribasidan ma'lumki, ko'zi ojizlarning huquqlarini himoya qiluvchi dastlabki tashkilot tarixi bir asrga borib taqaladi. Misol tariqasida Britaniyada "Milliy ko'zi ojizlar ligasi 1893-yilda taxminan ko'zi ojiz ishchilar uyushmasi sifatida tashkil etilgan"².

Ko'zi ojiz insonlarning bandlik, jamoatchilikka intgratsiyalashuvi, shaxsiy faoliyatda samaradorlikka erishish yo'nalishida tadqiqot o'tkazgan Amerikalik olim Gerald L. White muammoning quydagi jihatini izohlagan: "aynan ko'zi ojizlik tushunchasini o'zi ham ko'zi ojiz odamlarga raqobatbardosh ish bilan ta'minlanish uchun kata to'siq qo'yadi"³.

Margaret Anne esa o'z tadqiqotida mehnat bozoriga kirish jamiyatdagи turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillar bilan bir qatorda „ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi shaxslarning individual bandlik natijasi omillari”⁴ muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan.

Chilida ko'zi ojiz talabalarning o'qituvchilari tomonidan o'tkazilgan ularning bandlik jarayoniga intgratsiyalashuvi holatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotda ularning ta'lim jarayoni kasbga doir malakani shakllantir-

1 Norhasyikin Rozali, Promoting Social Entrepreneurship among Entrepreneur with Disabilities in Contribution for Community // ProQuest, Malaysia Perlis, 2018-y. 2-b jami 5 b. URL: <https://doi.org/10.1051/matecconf/201815005101 MUCET 2017>

2 Akihiro Sugino, Work and the blind identity in Japan with reference to the British experience // ProQuest, London School of Economics and Political Science, 2014-y. 125-b jami 308 b.

3 Gerald L. White, Problem-solving, self-efficacy, community integration, and employment of blind adults // ProQuest, University of Arkansas 2013-y. 10-b. jami 101 b.

4 Margaret Anne, Factors correlated with employment outcomes for individuals who are blind or visually impaired, // ProQuest, George Mason University, 2004-y. 3=b. jami 159 b.



masligi, aksincha, "Kam maktablar asosiy ish joylariga yo'naltiradi, kam maosh bilan va bu odamlarga tayinlangan ish uchun kvotalarni bajarishni qiyinlashtiradi"⁵ – deb ta'kidlangan.

Imkoniyati cheklangan mehnatga layaqotli yoshlar o'ttasida Rossiyada tadqiqotlar o'tkazildi va ushu tadqiqot natijalari "mehnat motivatsiyasining pasayishi kuzatilmogda nogironlarning o'zları. Rossiya Federatsiyasi mehnat vazirligi tomonidan 2015-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar mehnatga layoqatli yoshdagagi nogironlarning 17 foizi ishlamasligini ko'rsatdi. 2017–2018-yillarda bu foiz turli mintaqalarda ham o'sdi 30% dan (Moskva) 50% gacha (Boshqirdiston Respublikasi)"⁶ – ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi mehnatga bo'lgan motivatsiyaning tushub ketganligi hisoblanada.

Shuningdek, mavjud islohotlarga qaramasdan nogironligi bo'lgan shaxslar o'ttasida dolzarblik kasb etib turgan yana bir muammo haqida Vadim Nikita quyidagicha ta'kidlagan: „, bandlik xizmatlarning samaradorligi bilan bog'liq va ularning nogironlar bilan ishlashga uslubiy tayyorgarligi muammolar mavjud. Nogironlar orasidan ish izlovlchilarni umumiyoq qilinganligi kiritish mumkin emas.”⁷

Ko'zi ojiz insomlar jamiki nogironlar uchun majburiy kvotalarning belgilab qo'yilganligi, xalqaro nogironlar huquqi to'g'risidagi konvensiyasi asosida hamma davlatlarda qonunlarning yaratilishi va ularning bandligini ta'minlash uchun ajratilayotgan subsidiya hamda imtiyozlarga qaramasdan hali hanuzgacha „asosan xususiy biznesning 85 foiz dan oshiqroq"⁸ qismi imkoniyati cheklangan shaxslarni o'z faoliyatlarining qiymat zanjiriga qo'shishni xohlashmaydi.

Respublikamizda so'nggi yillarda rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish uchun olib borilayatgon islohotlar qataroga ko'zi ojiz insonlarni huquqlarini mukammal darajada himoya qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasini bevosita qo'llash uchun „Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"⁹ qonuni qabul qilinganligi e'tiborga loyiqidir.

Jumladan, O'zbekistonda ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan yosh avlodni ochiq mehnat bozoriga yuqori malakali kadr sifatida o'z qimmatlarini topishda qiyalmasliklari uchun dastlab ularning ta'limga e'tibor qaratish kerakligini hisobga olib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan „Ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'limga berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁰ qarorining qabul qilinishi, ushu sohani o'sishi uchun trampilin vazifasini o'tadi.

Inklyuziv iqtisodiyotni inklyuziv biznessiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ko'zi ojiz shaxslarni mehnatga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qonli qondirish uchun eng avvalo barcha turdag'i bizneslarni inklyuziv biznesga aylantirishimiz zarur. Shunday ekan „oddiy biznesni inklyuziv biznesga aylantirish uchun nima talab etiladi? Javoblardan biri – imkoniyati cheklangan aholini qiymat zanjiriga kiritishdir.”¹¹

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inklyuziv iqtisodiyot qurishni maqsad qilgan rivojlangan davlatlar nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqa-ro konvensiyani fundamental hujjat sifatida asos qilib ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan shaxslar uchun hukumat tomonida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan huquqiy hujjatlar vositasida mikrodarajada imkoniyatlar eshibi ochib berilmogda. Ushbu tadqiqot ishida ko'zi ojiz insonlar bandligini qonuniy tartibga solishning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tajribasi tahlili o'rganiilib muallif tomonidan uning mohiyati ochib berildi hamda bandlikning rivojlanish tendensiyalari tarixiy bosqichlarga ajratildi. Ushbu jarayonda iqtisodiy tahlil, analiz, sintiz, guruhlash va ilmiy abstraksiya metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida inklyuziv bandlik muammolariga yechim sifatida taklif etilayotgan normativ hujjatlarga qo'shimchalar kiritish lozim bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA ANALIZLAR

Insoniyat tarixiga nazar soladigan bo'lsak, sog'lom insonlar bilan bir qatorda turli xil nogieonligi bor insonlar tug'ilib kelmoqda. Ular ichida ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan insonlar jamiyatda mustaqil tarzda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda murakkab to'siqlarga duch kelishgan.

- 5 Maritza Fajardo, Pablo J. Castro-Carrasco, Teachers' subjective theories about the employment integration their blind studens // ProQuist, Chili 2020-y. 8-b. jami 11 b. Maritza Fajardo 1 ; Pablo J. Castro-Carrasco
- 6 Трудоустройство людей с ограниченными возможностями. Сайт Минтруда РФ. [Электронный ресурс] URL: <https://rosmintrud.ru/employment/resettlement> (дата обращения 13.12.2019).
- 7 Вадин Н.И. Совершенствование механизма трудоустройства инвалидов в России. // Avtoreferat, Moskva – 2020, 4-b. Jami 33 b.
- 8 Россия в цифрах. 2019: Крат. стат. сб./ Росстат – М., Р76 2019 – С. 238.
- 9 O'RQ, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida // Lex.uz, 695-son, 08.06.2021 y.
- 10 Prezident qarori, Ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'limga berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // Lex.uz, 209-son, 18.04.2022 y.
- 11 Q. Isayev, Har bir inson – bebaño capital // xalq so'zi, № 34, 18.02.2023-y. 4-b.



Ko'zi ojiz insonlarni dunyo yaralganidan hozirgi kunga qadar shaxsiy daramodlariga ega bo'lishlari uchun mehnat bozoriga va umuman olganda jamiyatga integratsiyalashuv jarayonini 3 bosqichga ajratishimiz mumkin.

1-jadval: Ko'zi ojiz shaxslarni jamiyatga intigratsiyalashuv jarayoni¹²

1-bosqich	Turgunlik davri: (qadimdan 1800-yillargacha)
2-bosqich	o'zgarishlar davri: (1800 – 2006-yillar oraligi)
3-bosqich	Islohotlar davri: (2006-yildan keyingi davr)

1-bosqichning turg'unlik davri deb nomlanishiga asosiy sabab, 1800-yilda harbiy maqsadda yaratilgan "Charlz Barbierning "Tungi yozuv" nomi bilan ham tanilgan sonografiya jadvalli"¹³ yozuvi yaratilmasidan oldin-gi davrga nazar soladigan bo'lsak ko'zi ojiz insonlar savodxonlik darajasi eng past darajada bo'lib, mehnat bozorida deyarli o'z faoliyatlarini yuritishmagan. Ularning asosiy daromad manbalari xayriya, ehsonlar va ya-qinlari daromadi bo'lib, hattoki aksariyat qismi tilamchilikni o'zlariga kasb qilib olishgan. Albatta, ushbu davrda ular ichida iste'dodlari natijasida muvaffaqiyatga erishganlari ham yo'q emas. Qadimgi davrda ko'zi ojizlarning o'ziga xos xususiyatlari e'tibor qaratgan olimlar mavjud misol uchun: „Eramizgacha VI-VII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk Xitoy olimi va faylasufi Konfutsiy (551–479) ko'zi ojizlarning xotirasi kuchliliqi va boshqalarga nisbatan yaxshililiga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan.”¹⁴

2-bosqich 1800–2006-yillar oralig'idagi muddatni o'z ichiga olib, ushbu davrda ko'zi ojizlar hayotida keskin burulishlar sodir bo'lган. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1825-yilda 16 yoshli Lui Brayl tomonidan hozirgi kunda amalda bo'lган, ko'zi ojiz aholi uchun muljallangan brayl ya'ni bo'rtma nuqtalarga asoslangan maxsus yozuvga asos solindi. Brayl yozuvi 1800-yilda Charls Barbierning „tungi yozuv“ga asoslanganholda yaratilgan.
- Brayl yozuvidagi birinchi yozuv mashinasi Frank Xeyven Xoll tomonidan ixtiro qilindi. Xoll ko'zi ojizlar maktabining direktori edi. Uning yozuv mashinkasi 1892 yilda ommaga taqdim etilgan.
- Ko'zi ojizlar huquqlarini himoya qiluvchi dunyo tarixida dastlabki uyushma 1893-yilda Britaniyada Milliy ko'zi ojizlar ligasi nomi asosida tashkil etilgan.
- Aynan 1950-yillarda dastlabki brayl bo'rttirmalari yoki printerlari ishlab chiqarilgan.

Islohotlar davri ya'ni 3-bosqich BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning qabul qilinishidan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda. Ushbu davrda chuqr islohotlar amalga oshirilib, jumladan, aksariyat dunyo davlatlari xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qildi hamda milliy qonunchiliklarini konvensiya bandlari talabiga moslashtirishdi. Shuningdek, inkiyuziv o'sish, inkiyuziv jamiyat, inkiyuziv biznesni rivojlantirish va uning samarasi, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lган e'tibor dunyo mamlakatlari nazdida dolzarb masala sifatida etirof etilib tub islohotlar olib borilmoqda.

Har bir davlat jahon iqtisodiyotiga intigratsiyalashuv davosida ekan ushbu jamiyatda nogironligi bo'lган shaxslar huquqlarini kafolatlovchi fundamental hujjat – bu nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiya hisoblanishi shart. Ushbu hujjat BMTning Bosh Assambleya tomonidan 2006-yil 13-dekabrda 61/106 rezolutsiyasi asosida qabul qilingan. Bu konvensiya imkoniyati cheklangan shaxslarni kamsitilishiga va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy to'siqlarga duch kelishini oldini oluvchi xalqaro darajadagi huquqiy asosdir. Ushbu hujjat nogironlar huquqlarini amalga oshirish va ulardan boshqa sog'lom insonlar kabi teng imkoniyatlardan foydalana olishlarini kafolatlaydi.

Konvensiyaning ovoz berish tartibisiz qabul qilinganligi shuni ifodala etadiki, jahon hamjamiyati nogironlarning huquqlarini kafolatlash va huquqlarini himoya qilish zarurligini so'zsiz tan oladi. Konvensiya "nogironlik" yoki "nogiron" tushunchalarini izohlamaydi, ammo jismoniy, aqliy, intellektual, psixik va hissiy buzilishlarni, ya'ni turli xil to'siqlar bilan o'zaro ta'sirga kirishishida ularga to'liqligicha xalaqit berishi mumkin va jamiyat hayotida faol ishtirot etishlarida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek ushbu konvensiya ko'zi ojiz shaxslar hayotida muhim ahamiyat kasb etib, 27-modda mehnat va bandlik sarlavhasi ostida quyidagi jumlalar keltirilgan: „...bu mehnat bozori va ishlab chiqarish muhitini nogironlar uchun ochiq inkiyuziv va ishtirot etish imkoniyati bo'lган sharoitda nogiron o'zi tanlagan va erkinb rozi bo'lган mehnat orqali turmush kechirishga pul ishlab toppish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini qamrab oladi.”¹⁵

Konvensiyada majburiyatar ro'yxati keltirilgan, nogironlarning huquqlarini ta'minlash maqsadida davlatlarga tirikchilik uchun mehnat qilishini, ya'ni nogiron shaxs erkin tanlagan bo'lishi yoki o'z xohishiga ko'ra rozi bo'lishi va barcha mehnat turlarida nogironligi sababli kamsitilishini oldini olish kabi vazifalarni o'z zimmasiga

12 Muallif tomonidan tuzildi.

13 URL: <https://www.yoair.com/uz/blog/anthropology-tracing-the-history-and-development-of-braille/>

14 Respublika bolalar kutubxonasi // internet manba. URL: <http://taqvim.uz/uz/event/view/3402>


15 Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya – Toshkent: Baktria press, 2013, 35–36 betlar jami 56 b.



oladi. Nogironlar uchun mehnat bozorlarini ochishni rag'batlantirgan holda, Konvensiya shu bilan birga shaxsiy mehnatning muhimligini ham tan oladi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda katta o'rinn tutadi. Konvensiyada nogironlarni ta'minlab oqilona tarzda ish joyini moslashtirish zaruriyati haqida ta'kidlangan va nogironlarni ishga yollashning ragbatlantirilishi xususiy sektorga tegishli strategiyalar va chora-tadbirlar bilan birga pozitiv dasturli harakatlari, rag'batlantirish va shunga o'xshash boshqa chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Nogironlarni ish bilan ta'minlashda shakkllantiradigan va takomillashtiradigan mexanizmlar masalasi xorijiy mamlakatlarda o'rganish uchun muhim masala hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'pgina mamlakatlarda ushbu soha faoliyati xalqaro hujjalarga muvoffiq amalga oshiriladi, ya'ni BMT qoidalari doirasida qabul qilinadi.

Dunyo bo'y lab ko'plab mamlakatlar ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlash va kengaytirish, ularning mehnat faoliyatida ishtirok etishlarini ta'minlash imkoniyatlarini ko'paytirish bilan yordam berish siyosatini olib borishmoqda. Bunday siyosat qonunchilikka rioya qilish orqali amalga oshiriladi va ko'zi ojiz shaxslarni inklyuziya bilan ta'minlaydi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ko'rish bo'yicha noironligi mavjud shaxslarni bandligini ta'minlashda kvotalash mexanizmi asosiy instrument vazifasini o'tab kelmoqda. Jamiatning ushbu qismini ish bilan ta'minlash imkoniyatini yaxshilash uchun yangi kvotalar ajratib boriladi. Davlatlar tajribasidan kelib chiqib kvotalash tizimini 3 ta yo'nalishga ajratish mumkin.



1-rasm: Dunyo davlatatlari tajribasi ko'ra majburiy kvotalash tizimining asosiy yo'nalishlari¹⁶

Ushbu yo'nalishlarga quyidagi davlatlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin:

- 1-yo'nalishga Hindistom
- 2-yo'nalishga Tayland
- 3-yo'nalishga esa Xitoy, Yaponiya, Belgiya, Gretsiya, Italiya, Germaniya.

Davlatlar kesimida kvotani belgilash sxemasi va uning qiymati turli xil bo'lishi mumkin; shuningdek kvota nogironligi bor shaxslarning ayrim toifalariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, Yaponiyada dastavval kvota faqat quyidagi toifadagi odamlar uchun yo'naltirigan edi: jismoniy chekllovlar mavjud nogironlar uchun, ammo 1998-yildan boshlab kvotalar toifasiga psixologik va xissiy chekllovlar bo'lgan shaxslar ham kiritilgan. Asosan, kvota bajaralishi shart hisoblanadi, ammo 1980-yillarda Niderlandiyada kvota tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ish beruvchi tomonidan bajarilmagan(atigi uning hajmi 3–5% dan oshgan).

Kvotalar samaradorligi masalasi juda munozarali, mamlakatlarda kvotalarni bekor qilish tizimi amaliyoti ham mavjud. Masalan, Buyuk Britaniya 3% kvotaga ega bo'lgan, ammo, 1996-yilga kelib korxona xodimlari nogironlarni ish bilan ta'minlash mexanizmidan voz kechishgan. Bu holatga kvotalarni bajaralishini nazorat qiluvchi mexanizmning yo'qligi sabab bo'lgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga yollash maxsus fond orqali ma'lum bir miqdordagi summa to'lanadi. Ushbu mexanizm Avstriya, Vengriya, Germaniya, Polsha, Ruminya, Slovakiya, Fransiya, Chexiya, Yaponiya va boshqa bir necha davlatlarda juda ham rivojlangan.

Bu kvota tizimini, birinchilardan bo'lib mamlakatlar ichida Germaniya foydalanishi boshlagan. Hozirgi kun-da, Germaniyada kvota qiymati 6% ga teng. Shu bilan birgalikda hukumat tomonidan kvota tizimini samarali ishlashi uchun quyidagi jadvalda keltirilgan usulda tashkilotlarga jarima to'lashni majburiyat etib belgilagan.

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.



2-jadval: Germaniyada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun majburiy kvotalangan ish o'rirlarini nazorat qilish mexanizmi¹⁷

Tashkilotda minimal xodimlar soni	Jami xodimlar ulushida nogironligi bor xodimlar	Majburiy kvotala bajarilmagan har bir xodim uchun jarima (har bir oyda)
60 ta	2 % gacha	260 yevro
60 ta	2 % dan 3 % gacha	180 yevro
60 ta	3 % dan 5 % gacha	105 yevro
5 tadan 40 tagacha	0 %	105 yevro
5 ta	0 %	0 yevro

Shuningdek, nogironlar bo'lgan shaxslar uchun ish o'rnlari ajratadigan korxonalar quyidagi huquqlarga ega bo'ladilar: subsidiya olish, imtiyozli shartlarda kredit olish.

Aksariyat davlatlarlar korxonalarda kvotalarni amalga oshirish uchun moliyaviy imtiyozlardan foydalani-shadi. Yaponiya qonunchiligidagi ishga qabul qilingan nogironlar uchun asbob-uskunalarni yaxshilash kabi grant-lar ajratilgan.

Skandinaviya davlatlarida sotsial-demokratik model amalga oshirilmoqda, unga ko'ra esa, davlat fuqarolarga quyidagi huquqlarini kafolatlab beradi: ehtiyoj darajasidan va mehnat hissasidan qat'i nazar ijtimoiy ta'minotni. Davlat imkoniyati cheklangan shaxslarga yuqori darajada e'tibor qaratgan. Imkoniyati cheklangan shaxslarni ish bilan ta'minlanishkarining asosiy mexanizmlaridan biri bu, nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun mos keladigan, ixtisoslashtirilgan kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan ustaxonalar va muayyan mutaxassisliklar bo'yicha ish o'rganishlaridir. Shunda ham, nogironligi bo'lgan shaxslarning oylik ish haqqini katta qismini davlat budjeti tomonidan subsidiya ko'rinishida to'lab beriladi, ish beruvchilarga kompensatsiya uchun mehnat unum-dorligidagi farqlarni qoplash uchun taqdim etiladi yoki nogironligi bo'lgan xodimlarning ish haqqiga qo'shimcha tarza kam miqdordagi kompensatsiya taqdim etiladi. Nogironlarning ish haqqini subsidiyalash mexanizmi nogironlarning ishchi kuchiga bo'lgan talabni rag'batlantirish usuli sifatida paydo bo'lgan.

Ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan shaxslarni ochiq bozorga teng raqobat ostida kirib borishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarning o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan davlat bu Britaniyadir. Ushbu davlatda Britaniya Qirolligi ko'zi ojizlar milliy instituti mavjud bo'lib, unda ko'zi ojizlar ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishlari uchun iqtisodiy jihatdan yordam ko'rsatib kelinmoqda. Institut fondi orqali ushbu shaxslarni bandligini ta'minlash doirasida „...uyda ishlashni xohlovchi yoki kichik guruhlarda tadbirkorlikni yo'lga qo'ymoqchi bo'lganlar zaruriy ko'mak olishi mumkin. Bunga ko'ra ular birinchi navbatda, o'quv mashg'ulotlariga jaib etilib, zaruriy biznes ko'nikmalarga ega bo'ladi, so'ngra moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadi.”¹⁸

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini o'rganish davomida ko'zi ojiz shaxslarni bandligini ta'minlash uchun eng avvalo quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab olish shart:

1. Kvotalar samarasasi nazorat qilish.
2. Ko'zi ojiz insonlar bandligini ijtimoiy modelini yaratish.
3. Har bir shaxsga xos qobiliyatlarni rivojlantirish.
4. Moliyaviy rag'bat tizimini joriy qilish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Respublikamizda so'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan qonunchilikka nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotlarga yengillik baxshida qiluvchi chora-tadbirlar belgilab qo'yildi. Bu kabi qonun, qaror va farmoyishlar amalda o'z samarasini bermasdan hali hanuzgacha ko'zi ojiz shaxslar o'rtasida yuqori ko'rsatkichli ishsizlik darajasi saqlanib qolmoqda. Ushbu va boshqa muammolarni oqilonla foydalanib xorij tajribasiga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

- Majburiy kvotalash tizimini samaradorligini nazorat qilish uchun Germaniya tajribasi asosida yo'lga qo'yish;
- Ko'zi ojiz insonlar bandligi, biznis yuritishga imkoniyat yaratish va ularga inklyuziv ish o'rirlarini yaratish uchun ularni manzilli qo'llab-quvatlaydigan moliyaviy institutlar tashkil qilish;
- Ko'zi ojizlarning kasbiy malakasini muktab davridan to mehnat resurslariga qo'shilishgacha bo'lgan davrni oldindan rejalashtirish, har bir shaxsning shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqib kasbiy malakaviy kurslariga o'qitish tizimini o'z ichiga olgan Kamida 10 yildan kam bo'limgan uzoq yillik strategiya yaratish;

17 Muallif tomonidan tuzildi.

18 Q. Isayev, Har bir inson – bebafo capital // xalq so'zi, № 34, 18.02.2023-y. 4-b.



- Biznes qilishga moyilligi bo'lgan ko'zi ojiz shaxslarni o'quv kurslariga o'qitilgandan so'ng biznes reja asosida moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash;
- Davlat tomonidan nogironlar uchun majburiy zaxiralangan ish o'rinnari haqidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda ijtimoiy tartmoqlarda taqdim etib turish;
- Hududlararo ko'zi ojizlar oligopolistik ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish ularni ochiq mehnat bozoridagi kuchli raqobatga kirishishidan himoya qiladi.
- Masofaviy ish o'rinnarini ko'zi ojiz insonlar uchun qonunchilik yordamida yo'naltirish ular o'rtasida ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Norhasyikin Rozali, Promoting Social Entrepreneurship among Entrepreneur with Disabilities in Contribution for Community // ProQuest, Malaysia Perlis, 2018-y. 2-b jami 5 b. URL: <https://doi.org/10.1051/matecconf/201815005101> MUCET 2017
2. Akihiro Sugino, Work and the blind identity in Japan with reference to the British experience // ProQuest, London School of Economics and Political Science, 2014-y. 125-b jami 308 b.
3. Gerald L. White, Problem-solving, self-efficacy, community integration, and employment of blind adults // ProQuest, University of Arkansas 2013-y. 10-b. jami 101 b.
4. Margaret Anne, Factors correlated with employment outcomes for individuals who are blind or visually impaired, // ProQuest, George Mason University, 2004-y. 3=b. jami 159 b.
5. Maritza Fajardo, Pablo J. Castro-Carrasco, Teachers' subjective theories about the employment integration their blind studens // ProQuist, Chili 2020-y. 8-b. jami 11 b. Maritza Fajardo 1 ; Pablo J. Castro-Carrasco
6. Трудоустройство людей с ограниченными возможностями. Сайт Минтруда РФ. [Электронный ресурс] URL: <https://rosmintrud.ru/employment/resettlement> (дата обращения 13.12.2019).
7. Вадин Н. И. Совершенствование механизма трудоустройства инвалидов в России. // Avtoreferat, Moskva – 2020, 4-b. Jami 33 b. Россия в цифрах. 2019: Крат. стат. сб./ Росстат – М., Р76 2019 – С. 238.
8. O'RQ, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida // Lex.uz, 695-son, 08.06.2021 y.
9. Prezident qarori, Ko'zi ojiz va zaif ko'rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // Lex.uz, 209-son, 18.04.2022 y.
10. Q. Isayev, Har bir inson – bebaho capital // xalq so'zi, № 34, 18.02.2023-y. 4-b.
11. Muallif tomonidan tuzildi.
12. URL: <https://www.yoair.com/uz/blog/anthropology-tracing-the-history-and-development-of-braille/>
13. Respublika bolalar kutubxonasi // internet manba. URL: <http://taqvim.uz/uz/event/view/3402>
14. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya – Toshkent: Baktria press, 2013, 35–36 betlar jami 56 b.
15. Muallif tomonidan tuzilgan.
16. Muallif tomonidan tuzildi.
17. Q. Isayev, Har bir inson – bebaho capital // xalq so'zi, № 34, 18.02.2023-y. 4-b.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.